

“TASDIQLAYMAN”  
Xorazm viloyati statistika  
boshqarmasi boshlig‘i



A.O’tamuratov  
“ ” 6 “ ” Merey 2024- yil

**Bog’ot tumani statistika bo‘limi to‘g‘risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Bog’ot tumani statistika bo‘limining (keyingi o‘rinlarda Bo‘lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlar, shuningdek, faoliyatini tashkil etishni belgilaydi.
2. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining (keyingi o‘rinlarda Statistika agentligi deb ataladi) yagona tizimiga kiruvchi hududiy statistika organi hisoblanadi va o‘z faoliyatida Xorazm viloyati statistika boshqarmasiga (keyingi o‘rinlarda Boshqarma deb ataladi) bo‘y sunadi.  
Bo‘lim mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining (keyingi o‘rinlarda Statistika agentligi va Xorazm viloyati statistika boshqarmasiga bo‘y sunadi;
3. Bo‘lim mahalliy davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, yuridik shaxslar va fuqarolarning statistik ma’lumotlardan foydalanuvchilarni rasmiy statistika axborotiga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi, yaxlit ilg‘or statistika axboroti tizimining faoliyat ko‘rsatishiga yo‘naltirilgan davlat statistikasi sohasidagi yagona siyosatni amalga oshirishda ishtirok etadi.
4. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Statistika agentligining buyruqlari, qarorlari, topshiriqlari va ko‘rsatmalariga, Boshqarmaning buyruqlari va ko‘rsatmalariga, mazkur Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.
5. Bo‘lim o‘z faoliyatini boshqa mahalliy davlat organlari va yuridik shaxslar bilan o‘zaro hamkorlikda, shu jumladan idoralararo elektron hamkorlik qilishdan foydalangan holda amalga oshiradi.
6. Bo‘lim o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi kengashi tomonidan tasdiqlanadigan statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq tashkil qiladi.

7. Bog'ot tumani statistika bo'limi (keyingi o'rnlarda statistika organi deb ataladi) qonuniy faoliyatiga davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdar shaxslarining har qanday aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

8. Bo'lim Xorazm viloyati statistika boshqarmasining yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tarkibiy bo'linmasi hisoblanib, bo'limga kelib tushadigan va chiqib ketadigan hujjatlar va murojaatlarni ro'yxatga olish shtamplariga ega.

9. Bo'limning joylashgan manzili: Xorazm viloyati, Bog'ot tumani, O'zbekiston ko'chasi, 18-uy.

## **2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari**

10. Quyidagilar Bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

rasmiy statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirish va statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash;

xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini joriy etish;

ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishslash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish;

davlat organlarini, yuridik shaxslarni va statistik ma'lumotlardan foydalanuvchi aholini Bog'ot tumani bo'yicha statistika axborotlari bilan belgilangan tartibda ta'minlash;

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtiroy etish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlash;

Bo'limning ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlariga o'z vaqtida munosabat bildirish, yuklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlar mas'uliyatini oshirish.;

ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish.

11. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) rasmiy statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirish va statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash borasida:

rasmiy statistika tamoyillariga rioya etilishini va xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan statistik metodologiyaning yagonaligini ta'minlaydi;

Bo'limning tahliliy salohiyatini mustahkamlash bo'yicha zarur choralarini ko'radi;

b) xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini joriy etish sohasida:

shaharda statistika bo‘limi davlat statistika kuzatuvlari shakllarining joriy etilishini tashkil etadi, jumladan, hisobot taqdim etuvchi sub’ektlarni tasdiqlangan davlat statistika hisoboti shakllari to‘g‘risida xabardor qiladi hamda ularni elektron shaklda to‘ldirish va taqdim etish bo‘yicha tushuntirishlar beradi;

davlat statistika kuzatuvlarini yagona statistika metodologiyasiga qat’iy amal qilgan holda o‘tkazilishini ta’minlaydi;

v) *ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika axborotlarini yig‘ish, qayta ishlash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e’lon qilish sohasida:*

Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida belgilangan ishlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi;

Bog’ot tumani bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat va hududiy dasturlarining bajarilishi yuzasidan Statistika agentligi tomonidan belgilangan statistika kuzatuvlarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etadi;

statistika hisobotlarini elektron ko‘rinishda, zarur hollarda qog‘oz ko‘rinishida yig‘ishni, ro‘yxatdan o‘tkazishlarni, bir martalik hisobga olishlarni, so‘rovlarni va boshqa kuzatuvlarni Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiyaga qat’iy amal qilgan holda tashkil etadi va ta’minlaydi;

statistika, hisobot ko‘rsatkichlarining va o‘tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini ta’minlaydi;

statistika ishlarini tashkil etishning statistika axborotlarini yig‘ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga davlat organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining har qanday aralashuvini istisno qiladigan tizimini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga ishonchli statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko‘maklashadi, statistik ma’lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbarliklarning oldini olishning ta’sirchan mexanizmlarini amalga oshiradi, statistik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy usullarini qo‘llanishini ta’minlaydi;

statistik ma’lumotlardan foydalanuvchilarga statistika Agentligining axborot resurslaridan foydalanishga doir tushuntirishlar beradi;

oligan statistika ma’lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot ma’lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko‘rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslikni, davlat sirlariga ega bo‘lgan statistika ma’lumotlarining himoya qilinishini ta’minlaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq, bo‘lim faoliyati jarayonida yuzaga kelgan arxiv hujjatlarini belgilangan tartib va muddatlarda boshqarma idoraviy arxiviga taqdim etilishini ta’minlaydi;

o‘z vakolatlari doirasida bo‘lim faoliyati jarayonida olingan xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta’minlaydi;

*g) davlat organlarini, yuridik shaxslarni va aholini hudud bo‘yicha statistika axboroti bilan belgilangan tartibda ta’minlash sohasida:*

hududning rivojlanishini tizimli tahlil qilish bo‘yicha boshqa hududiy boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi;

barcha foydalanuvchilarga ochiq statistik ma’lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlaydi;

Bog’ot tumani bo‘yicha ma’lumotlar asosida mahalliy ommaviy axborot vositalarida (mahalliy telekanallarda) tahliliy materiallarni keng namoyish qilish yo‘li bilan statistik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida aholini xabardor qilish choralarini ko‘radi;

statistika kuzatuvlari va rasmiy statistika axborotlari masalalari bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib boradi;

shartnoma asosida boshqarma nomidan, qonun hujjalarda belgilangan tartibda statistik, tahliliy, axborot xizmatlarini va statistika ishlari ishlarini ishlab chiqarish dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni ko‘rsatadi;

*d) Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirok etish sohasida:*

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrida hududda joylashgan yuridik shaxslarni to‘liq hisobga olishni va ular faoliyati holatidagi o‘zgarishlarni monitoring qilishni ta’minlaydi;

*e) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minlash sohasida:*

statistika axborotlarining tezkorlik bilan uzatilishini va qayta ishlanishini ta’minlovchi yangi axborot-kommunikatsiya resurslari va texnologiyalarini bo‘lim faoliyatiga joriy etishda ishtirok etadi;

statistika organlari axborot resurslari va tizimlarining axborot xavfsizligini ta’minlash, statistik axborot-hisoblash tizimini ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish bo‘yicha zarur choralarini ko‘radi;

*j) Bo‘limning ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlariga o‘z vaqtida munosabat bildirish, yuklangan vazifalar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlar mas’uliyatini oshirish sohasida:*

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida bo‘lim ishini takomillashtirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘radi;

bo‘lim tegishli hududiy boshqarma bilan kelishgan holda kadrlarining malakasi oshirilishini va qayta tayyorlanishini tizimli asosda ta’minlaydi;

rasmiy statistika sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va statistik ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchlilagini ta'minlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan samarali hamkorlik qilishni tashkil etadi, ular uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratadi;

fuqarolarni qabul qilishni tashkil qiladi, jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini, ular bo'yicha qarorlar qabul qilinishini va qonun hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda murojaat egalariga javoblar yuborilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan statistika sohasidagi qonun hujjatlari buzilishini oldini olishga qaratilgan ogohlantiruvchi va profilaktika xususiyatiga ega choralarini, shuningdek, aniqlangan qonunbuzarliklar oqibatlarini bartaraf etish choralarini amalga oshiradi.

*z) ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish sohasida:*

ro'yxatga olishni o'tkazish to'g'risida aholini xabardor qilishga doir ishlarni amalga oshiradi;

ro'yxatga olishga jalb etiladigan xodimlarni o'qitish ishlarini tashkil etadi;

ro'yxatga olish jarayonlarini sifatli tashkil etilishini ta'minlaydi;

ro'yxatga olish varaqlari va boshqa ro'yxatga olish hujjatlarining saqlanishi (shu jumladan, vaqtincha saqlanishi) va yo'q qilinishi ta'minlaydi.

Bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

### **3-bob. Bo'limning huquqlari va javobgarligi**

12. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar, funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Bog'ot tumani hududidagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda – ularning vakolatxonalarini va filiallaridan) statistika hisobotini belgilangan tartibda olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

Bog'ot tumani hududidagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, davlat tashkilotlaridan statistika ishlarini olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

Bog'ot tumani hududidagi yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlardan, shuningdek yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning registrlari va axborot bazalarini shakllantiruvchi va yurituvchi davlat organlari va ularning idoraviy mansub tashkilotlaridan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va faollashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;

Bog'ot tumani hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiya bo'yicha olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

statistika kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek rasmiy statistika axborotlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

barcha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan statistika sohasidagi qonun hujjalarning bajarilishini qonun hujjalarga muvofiq nazorat qilish;

olinayotgan statistika ma'lumotlarining to'liqligi, ishonchliligi va xolisligini ekspertizadan o'tkazish;

statistika ma'lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish;

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzayotgan mansabdar shaxslarga nisbatan qonun hujjalarga muvofiq ma'muriy jazo choralari ko'rish;

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzganlik uchun mansabdar shaxslarga qo'llaniladigan ma'muriy jarimalardan tushumlar hisobiga Statistika Agentligining maxsus jamg'armasini shakllantirishda ishtirok etish va undan belgilangan tartibda maqsadli foydalanish;

shartnoma asosida boshqarma nomidan statistik, tahliliy, axborot xizmatlari va statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturidan tashqari boshqa (konsalting) xizmatlarni qonun hujjalarda belgilangan tartibda ko'rsatish.

Bo'lim qonun hujjalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

13. Bo'lim va uning mansabdar shaxslari ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishi uchun javob beradi.

Bo'limning mansabdar shaxslari harakatlari ustidan shikoyat qilish qonun hujjalarga muvofiq amalga oshiriladi.

14. Bo'lim rahbarlari va xodimlari rasmiy statistika sohasidagi qonun hujjalari talablarini buzganlik, tarqatilishi cheklangan statistik ma'lumotlar, statistik axborotlar va (yoki) ma'lumotlar bazasini yo'qotganlik, sotganlik, bergenlik va boshqa noqonuniy oshkor etganlik uchun, shuningdek statistika ma'lumotlarini yashirganlik va buzib ko'rsatganlik uchun, yoxud ko'rsatib o'tilgan huquqqa zid qilmishlarga ko'maklashganlik uchun qonunga muvofiq javob beradi.

#### **4-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish**

15. Bo'lim boshlig'i:

Bo'lim faoliyatiga umumiylar rahbarlik qiladi va Bo'limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda Bo'limni ifodalaydi;

Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Bo'lim xodimlarining majburiyatlari va javobgarligi darajasini belgilaydi;

Bo'lim xodimlarini Boshqarma tomonidan mukofotlash, rag'batlantirish, yuqori malakasi uchun ustamalar belgilash va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash bo'yicha Boshqarmaga takliflar kiritadi;

Bo'lim xodimlarini tegishli hududiy boshqarma bilan kelishgan holda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tizimli asosda ta'minlaydi;

Bo'limga yuklangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun amaldagi qonun hujjatlari doirasida zarur choralar ko'radi.

Boshliq qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### 16. Lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish:

Bo'lim xodimlari – Boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi;

Bog'ot tunmani statistika bo'limi boshlig'i - Statistika agentligi bilan kelishilgan holda Boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

#### 5-bob. Bo'lim faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnika ta'minoti

17. Bo'limning mol-mulkini Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tomonidan foydalanish uchun ajratilgan asosiy vositalar, shuningdek qiymati Xorazm viloyati statistika boshqarmasi balansida aks ettiriladigan boshqa boyliklar tashkil etadi.

18. Bo'limning moddiy-texnika ta'minoti statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Bo'limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, xodimlarning kasb mahoratini, o'z lavozim vazifalarini sifatli bajarganligini, ijodiy faolligini va tashabbuskorligini rag'batlantirish Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

#### 6-bob. Yakunlovchi qoida

19. Bo'limni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bo'lim boshlig'i

R.Bekiyev

Bosh yuriskonsult

I.Otajonov